

YOSHLARNING HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH VA HARBIY XIZMATGA TAYYORLASH ISHLARINING YO'NALISHLARI

Tilavoldiyev Shaxobidin Xoldarovich

Farg'ona davlat universiteti

harbiy ta'lim fakulteti

Annotatsiya: *mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish va ularni harbiy xizmatga tayyorlash ishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ommaviy-mudofaa ishlari, harbiy-texnik tayyorgarlik, sportning harbiy texnik turlari, mudofaa-sport sog'lomlashtirish oromgohlari, ommaviy mudofaa ishlari oyligi, moddiy texnik baza, harbiy-texnik to'garaklar, mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, —Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 8 noyabrdagi 591-sonli qaroriga asosan, Chaqiruvga qadar boshlang_ich tayyorgarligi Nizomi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023

yil 29 iyundagi 267-sonli qaroriga asosan mamlakatimizda 2023 - 2027 yillarda

yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish

Konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik

ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va manan sog'lom avlodni tarbiyalashga

oid yaxlit talim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib,

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jaxondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston xayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga aloxida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, ularning barcha yo'nalishlarda bilim va

ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, «O'zbekiston— 2030» strategiyasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha belgilangan keng ko'lamli vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida 2024 yil 19 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” nomli PQ-393 sonli qarori qabul qilindi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Ona Vatan himoyasiga tayyorlash, yoshlar umumiy tarbiyasining ajralmas bir tarkibiy qismidir.

Bu muhim vazifani amalga oshirishda o'rta ta'lim o'quv yurtlari muhim o'rin egallaydi, chunki o'sib borayotgan yosh avlodning mafkuraviy e'tiqodi, dunyoqarashlarini aynan shu bilim yurtlarida shakllanadi.

O'rta ta'lim o'quv yurtlarida o'quvchilarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o'qishning butun bir davri davomida amalga oshiriladi. Yoshlarni Ona Vatan himoyasiga tayyorlashda ommaviy-mudofaa ishlarining o'rni ham sezilarlidir.

Ommaviy-mudofaa ishlari bu - davlat va jamoat tashkilotlarining mehnatkashlarda, ayniqsa, Yoshlarda yuksak axloqiy, jangovar xislatlarni shakllantirish, ularni davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan harbiy bilim va malakalar bilan qurollantirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir. Ommaviy-mudofaa ishlari jarayonida, yoshlarda majburiy harbiy ta'lim shakllarida olgan bilim, ko'nikma va malakalar mustahkamlanadi.

Ommaviy-mudofaa ishlari quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi;
- harbiy-texnik bilimlarni tashviqot qilish;
- harbiy-texnik sport turlarini rivojlantirish;
- turli texnik to'garaklarini tuzish;
- harbiy sport o'yinlarini tashkillash.

Ommaviy-mudofaa ishlarini, harbiy bilimlarni tashviqot qilishning yaxshi yo'lga qo'yilishiga doimiy ravishda o'tkazilib turiladigan ommaviy -mudofaa va harbiy-vatanparvarlik ishlari ko'riklari imkon yaratadi. Bu ishlar jarayonida tashkilot va muassasalarda, bilim yurtlarida jangovar va mehnat an'analar tashviqoti faollashtiriladi, yangi tirlar, harbiy tayyorgarlik xonalari, radiosinflar va ko'rik maydonchalari quriladi, mudofaa to'garaklari tuziladi, o'quvchi Yoshlar haydovchi, traktorchi, radio aloqachi, sanitar va shunga o'xshash kasblarni egallaydi.

Harbiy-texnik bilimlarni tashviqot qilishni, Yoshlarda harbiy ish asoslarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni tarbiyalash shakllaridan biri bu harbiy-vatanparvarlik ahamiyatiga ega bo'lgan va Vatanimiz tarixidagi muhim voqealar bilan bog'liq ulug' sanalar sharafiga bag'ishlab o'tkaziladigan ommaviy-mudofaa ishlari oyligi va xaftaliklaridir.

Harbiy-texnik bilimlar tashviqoti uchun ma'ruza va dokladlar, jangovar texnika va qurollar, Yoshlarni harbiy texnik ijodlari ko'riklari, viktorina va tematik kechalar, matbuot, ko'rgazmali tashviqot va shu kabi boshqa vositalardan foydalaniladi.

Yoshlarni Qurolli Kuchlarni bugungi kundagi holati, uning jangovar tayyorgarligi va qurollanishi bilan tanishtirishga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchi yoshlar radio elektronika, raketa, aviatsiya va boshqa texnikalar borasidagi yutuqlar va ulardan harbiy ish manfaatlari uchun foydalanishdagi namunalardan bilan tanishadilar. Ommaviy- mudofaa ishlarida yoshlarni harbiy ish asoslariga va mudofaa uchun ahamiyatga ega bo'lgan harbiy-texnik va xalq xo'jaligining aniq bir mutaxassisliklariga amaliy o'rgatish uchun muhim o'rin ajratiladi. Yoshlar ta'lim jarayonida fuqarolar himoyasining asoslari, ayniqsa, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalaniish, dushmanning yadro zarbalari oqibatlarini tugatish va jabrlanganlarga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish usullari bilan tanishadilar. Buning uchun yoshlarni amaliy o'qitish va harbiy texnik tashviqotning har xil shakl va vositalari qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtda, mamlakatimizdagi tashkilot, o'quv yurtlari va maktablarda tashkil etilayotgan o'q otish, aviamodel, radiotexnika va shu kabi to'garak va klublar keng e'tibor qozonmoqda. Bu yerda mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkilotining sport-texnik klublari, maktab va kurslari haqida gapirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yerda yoshlar xalq xo'jaligi, shuningdek, Qurolli Kuchlarda bir xil muvaffaqiyat bilan foydalaniladigan texnikaviy kasblarni egallamoqdalar.

Har bir bilim yurti to'garak yo'nalishini tanlashda moddiy bazani va mashg'ulotlarni olib bora oladigan mutaxassislarning borligidan kelib chiqib ish yuritishi kerak. Ommaviy-mudofaa to'garaklarida rahbarlik qilish uchun yaqin atrofdagi harbiy qism ofitser va serjantlari, harbiy bilim yurti kursantlari, «Vatanparvar» tashkiloti faollari, zaxiradagi ofitserlar, ota-onalar, harbiy talim o'qituvchilari va oliy o'quv yurti talabalari jalb qilinadi.

To'garaklar ishlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti bilan kelishilgan dasturlar asosida olib borish tavsiya etiladi. Har bir bilim yurtida 2-3 ta to'garak tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Harbiy va harbiy-texnik to'garaklarning dasturlarini ularga muvofiq keluvchi fan dasturlariga bog'liq holda olib borish kerak. To'garak mashg'ulotlarida tayyorlanayotgan kichik hajmli mashina va radioasboblarning tuzilishi va ishlash prinsipi asosida yotgan, o'quvchilarga fizikadan ma'lum bo'lgan qonunlarni eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir. To'garaklar ishlarini harbiy ishlar bilan bog'lagan holda, qachon, qanday harbiy texnikalarda, u yoki bu ilmiy qonunlar va qonuniyatlardan foydalanish mumkinligini ko'rsatib, ularning amaliy yo'nalishligini ta'minlab berish juda muhimdir.

To'garaklar ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bilim yurti moddiy bazasini texnik jihatdan ta'minlanishiga bog'liq bo'ladi. Buning uchun homiy tashkilotlar, harbiy qismlarning imkoniyatlaridan o'quv va ta'lim xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlangan ustaxonalarni jihozlashda, bilim yurtini kerakli ko'rgazmali qurollar va materiallar bilan ta'minlashda to'liq foydalana bilish kerak.

To'garak ishini tashkil etishda shuni nazarda tutish kerakki, uning samaradorligi amaliy yo'nalishi va natijaligi, u yoki bu harbiy mutaxassislikka boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni olishga yordam beruvchi turli tuman uslublardan foydalanishga bog'liq bo'ladi. O'quv yilining oxirida to'garak ishlarini yakuniy natijalari ko'rib chiqiladi, o'quvchilarning texnik ijodlari namunalari ko'rigi tashkil etiladi.

Harbiy-vatanparvarlik ishlarida yuqori sinf o'quvchilariga harbiy va harbiy texnik bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beruvchi o'quvchilarning harbiy vatanparvarlik birlashmalari va klublari sezilarli o'rinni egallaydi. Shuningdek, harbiy bilim yurtlarini o'quvchi yoshlarni harbiy mutaxassisliklarni egallashga tayyorlashda o'tkazadigan barcha ish shakllaridan to'la foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu klub va bilim yurtlarida mashg'ulotlar uchun kerakli sharoitlarni yaratib, yuqori sinf o'quvchilarining harbiy-texnik talimlari muvafaqqiyatini ta'minlagan holda, o'quvchilarni har tomonlama qiziqtirib, bu dargohlarga ko'proq yoshlarni yo'llash kerak.

O'rta maxsus bilim yurtlarida harbiy-vatanparvarlik ishlarini tashkillashda, yoshlar uyi (markazi), yosh texniklar stansiyalari, texnik ijod klublari kabi maktabdan tashqari muassasalar yaqindan yordam berishlari kerak. Ular harbiy texnik to'garaklar (o'q otish, avtomototsikl, radiotexnik, radioelektronika va boshqalar)ni tashkil etadilar, shuningdek, barcha to'garaklarda va o'smirlarni texnik ijodlari guruhlarida harbiy-vatanparvarlik ishlarini olib boradilar; «Vatanparvar» tashkiloti bilan birgalikda sportning harbiy amaliy turlari harbiy musobaqalar, harbiy va harbiy texnik mavzusida ko'riklar va olimpiadalar tashkil etadilar.

O'quvchilarni harbiy texnik tayyorgarligi yozgi ta'til vaqtlarida ham to'xtab qolmasligi kerak. Bu vaqtda maktabdan tashqari bolalar va o'smirlar muassasalari o'z ishlarini davom ettiradilar, o'quvchilar oromgohlarida harbiy texnik to'garaklari tuziladi, sportning texnik turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi, «Vatanparvar» tashkilotining texnik klublariga, harbiy qism va bilim yurtlariga ekskursiyalar uyushtiriladi. O'quvchilar harbiy sport oromgohlarida avtomobil va mototsikllarni haydash, o'qotar qurollardan o'q otish malakalarini takomillashtiradilar.

Jamoa tashkilotlarining yordami bilan maxsuslashgan texnik mudofaa oromgohlari tashkil etilib, ularning moddiy bazasi asosida har xil texnik to'garaklar qatnashchilarining yig'ini o'tkaziladi va shuningdek, sportni harbiy-texnik turlari harbiy musobaqalar tashkil qilinadi.

O'quvchi Yoshlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga yaxshi tayyorlash maqsadida sportning harbiy-amaliy turlari mashg'ulotlariga jalb qilish, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy mudofaa ishlarida alohida o'rin egallaydi.

O'smirlarda jismoniy chidamlilikni, epchillikni, harakatlar bajarilishining to'g'riligini, kuzatuvchanlikni, tashqi ta'sirga javob tezligining rivojlanishi doimiy diqqat etiborda bo'lishi zarur. O'quvchilar bu malakalarni to'siqlar chizig'ini zabt etishda, kichik kalibrli vintovkalardan o'q otishda, joylarda

yo'nalishni topishda, nishonga granatani uloqtirish kabi mashg'ulotlarda o'zlashtiradilar.

Jismoniy rivojlanish va olingan malakalarni takomillashuvi maktablar va jamoa tashkilotlari kuchlari bilan tashkil etilgan mudofaa sport oromgohlarida davom ettiriladi.

Qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ravishda ychish uchun maktab o'quv sport bazasining «Chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi» dasturida ko'rsatib o'tilgan talablar darajasiga yetkazish uchun harakat qilish kerak.

«Alpomish va Barchinoy» maxsus testlarini topshirish uchun har bir maktabda eng yaxshi sportchilardan jamoat instruktorlarini va sport seksiyalari rahbarlarini tayyorlash kerak.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ommaviy-mudofaa ishlari oyligining asosiy vazifalari.

- Maktabdagi Yoshlar tashkilotlarini harbiy qismlar bilan bo'lgan aloqasini yanada mustahkamlash;

- O'quvchi yoshlarni O'zbekiston Qurolli Kuchlariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlarini kuchaytirish;

- Ommaviy-mudofaa ishlarini samaradorligi va yuqori sinf o'quvchilarini texnik va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish, shuningdek, ularni O'zbekiston Qurolli Kuchlari xizmatiga tayyorlash.

Harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlari oyligi kunlarida, yoshlarni jismoniy va harbiy texnik tayyorgarligi harbiy «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarini topshirish o'tkazilishi, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa tadbirlari, jangovar va mehnat shuhrati joylariga safarlar, ular bo'yicha ma'ruzalar, suhbatlar, shon-shuhrat kechalari, kinofestivallari, - O'zbekiston qahramonlari bilan uchrashuvlar, shuningdek, harbiy-amaliy sport turlari, harbiy musobaqalar uyushtirilib, harbiy sport bayramlari o'tkaziladi. «Vatanparvar» va Yoshlar ittifoqi tashkilotlari oylik kunlarida «O'zbekiston Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to'g'risida» mavzusida ma'ruzalar, jasorat darslari va ko'riklar tashkil etadilar. 14-yanvar «Vatan himoya chilari kuni» o'quvchilar Vatanimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan qahramonlar haykallari poyiga gulchambarlar qo'yib, faxriy qorovulda turadilar.

O'tkazilayotgan barcha harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlari tadbirlarining mafkuraviy-siyosiy mazmuni, o'quvchilarga O'zbekiston Konstitutsiyasi, Prezident va hukumatning Vatanni himoya qilish borasidagi qonun va qarorlarini, -O'zbekiston Respublikasi hukumati olib borayotgan tinchliksevar ichki va tashqi siyosatni, Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi yo'lida amalga oshirilayotgan faoliyatlarini tushuntirib berishdan iborat bo'lishi kerak.

Harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlari oyligi kunlarida xalqimizning o'tmishdagi buyuk farzandlari qilgan olamshumul qahramonliklarini va bugungi kunda Qurolli Kuchlar saflarida Vatan himoyasi uchun sadoqat bilan xizmat qilayotgan zamondoshlarimiz jasoratlarini keng tashviqot qilish tavsiya etiladi.

O'quvchi yoshlarga bugungi kunda xalqimizning, ozod vatanimizni mustahkam, iqtisodiyot jihatidan qudratli huquqiy jamiyat yaratish yo'lidagi tinch mehnatini ko'ra olmayotgan va bizning mustaqilligimizga rahna solayotgan har xil diniy ekstremistik guruhlarining jinoyatkorona kirdikorlarini ro'y-rost ochib tashlab, ularni bu illatlarga, xalqimiz dushmanlariga qarshi ayovsiz kurashga va O'zbekistonning sadoqatli farzandlari bo'lib yetishishga chaqirish maqsadga muvofiqdir.

«Vatanparvar» va yoshlar tashkilotlari oylik kunlarida o'quvchilarning jamoatchilik asosida o'quv moddiy bazasini, o'q otish tirlarini, maydonchalarni, to'siqlar chizig'ini va boshqa o'quv joylarni takomillashtirishga, ko'rgazmali qurollarni tayyorlashga, o'quv sinflarni jixozlashga keng jalb qilishi kerak. O'quv moddiy bazasini to'la va talablar darajasida bo'lishi ommaviy-mudofaa ishlarini yanada keng yoyishga imkon yaratadi.

«Vatanparvar» tashkiloti oylik kunlarida o'tkazilayotgan tadbirlarni devoriy gazeta taxririylati muntazam ravishda «Jangovar varaqa» lar, devoriy gazetalar va maktab radiotarmog'i orqali yoritib borishlariga harakat qilishlari kerak. Ommaviy-mudofaa oyliyini yakunlovchi bosqichi bo'lib, «Vatan himoyachilari kuni»ga bag'ishlab o'tkaziladigan kecha hisoblanadi. Bu kechalar barcha ishtirokchilarning e'tiborini qozongan holda, qiziq va mazmunli o'tishi kerak. Maktabga, odatda, jangovar harakatlar qatnashchilari, O'zbekiston qahramonlari, zaxiradagi ofitserlar, shuningdek, mahalliy harbiy qismlar ofitserlari keladilar. Bu insonlar hayotida o'quvchilarga aytishga, o'z xotiralarini eslashga arzigulik voqealar, hayotni achchiq-chuchuk tajribalari bor. Ularning qahramonliklari, bosib o'tgan hayot yo'llari o'quvchi yoshlar uchun namuna bo'lib qolishi lozim. Ona Vatan himoyasi va uning ravnaqi uchun qilgan jasorati va mehnat qahramonliklari yoshlarga «Yashashdan maqsad nima?» degan mangu savolga javob topishlariga ko'mak berib, ularni hayot yo'llarini belgilab beradi.

Maktabdagi bunday kechalar uzoq vaqt kecha qatnashchilari va o'quvchilar xotirasida qolishi uchun o'zini o'tkazish tartibiga ega bo'lishi kerak.

Kecha tantanali ravishda baraban sadolari ostida O'zbekiston bayrog'ini olib kirish bilan boshlanadi. Uning badiiy qismi ham, mazmuni ham boy bo'lishi zarur. Bunga maktab badiiy havaskorlarini chiqishi, Vatan haqidagi qo'shiq va she'rlar, turli mavzudagi savol-javoblar orqali erishish mumkin.

Harbiy-vatanpavarlik va ommaviy-mudofaa ishlari oyliy rejayi uni o'tkazishdan ancha oldin tuziladi (ishlab chiqiladi) va yoshlar tashkiloti, «Vatanparvar» tashkiloti, «Temurbeklar» va «Shunqorlar» harbiy-sport o'yini maktab shtabi tomonidan birgalikda har tomonlama muhokama qilinadi va maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Unda barcha tadbirlar, o'tkazish muddatlari va ularni amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan shaxslar sanab o'tiladi. Harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlari oyliy davomida texnik va o'q otish to'garaklarida shug'ullanuvchi o'quvchilarni soni sezilarli darajada ko'payadi, otish musobaqalari o'tkaziladi, mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» va yoshlar tashkilotlariga yangi a'zolar qabul qilinadi.

Ommaviy-mudofaa ishlari oyli yoshlarda O'zbekiston Qurolli Kuchlariga bo'lgan hurmat va muhabbatni tarbiyalashga xizmat qiladi, ularda shonli tariximizni yanada yaxshiroq bilishga intilish uyg'onib, chaqiruvga. Yoshlarni harbiy xizmatga ongli ravishda tayyorlanishlariga imkon yaratadi. Yuqorida aytib o'tilgandek, sportni harbiy-texnik turlari bo'yicha musobaqalar tashkillash, ommaviy-mudofaa ishlari oyligining tarkibiy bir qismidir.

Sportning harbiy-texnik turlari, yoshlarni mehnatga va Vatan himoyasiga har tomonlama tayyorlashning muhim bir vositalaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, harbiy ta'lim o'qituvchisi maktabda «Vatanparvar» tashkiloti bilan birgalikda uni keng rivojlanishiga erishishga harakat qilishi kerak.

Bizga ma'lumki, ko'pgina maktab va boshqa o'quv yurtlarida ommaviy-mudofaa ishlari talab darajasida yo'lga qo'yilgan emas. Ularda kamdan-kam hollarda musobaqalar o'tkaziladi, sportchilarni tayyorlash, ularni tarbiyalash yaxshi tashkil etilmagan. Ko'p hollarda ishlarni bunday holatda bo'lishiga harbiy ta'lim o'qituvchisi va maktab ma'muriyatining me'yoriy hujjatlarni bilmasliklari, ba'zan esa musobaqalarni tashkillashga istaklari yo'qligi sabab bo'ladi.

Ushbu mashg'ulotda sportning ba'zi bir harbiy-texnik turlari bo'yicha musobaqalarni uyushtirish va o'tkazishni shakl va uslublarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bunday musobaqalarga qatnashish uchun 5-sinf dan boshlab o'quvchilarni jalb qilish mumkin. Musobaqalar sportning barcha turlari bo'yicha «Alpomish va Barchinoy» me'yorlari asosida o'tkaziladi. Shunday qilib, bu musobaqa to'garak ishlari natijalarining yakuniy ko'rigidir. Musobaqalar sinf ichida, sinflararo, maktab, tuman, shahar va viloyat birinchiligi uchun o'tkazilishi mumkin.

Sportning harbiy-amaliy turlari harbiy maktabda sinflararo musobaqalar uyushgan holatda tantanali vaziyatda o'tkaziladi. Musobaqaga o'quvchilarning ota-onalari, homiy tashkilotlarning vakillari, harbiy qism ofitserlari taklif etiladi.

Musobaqalar dasturi, ularni o'tkazish muddatlari, o'quvchilarning Yoshlar sport turlari harbiy musobaqa qoidalariga qat'iy ravishda muvofiq bo'lishi kerak.

O'quvchilar quyidagi harbiy-texnik sport turlari bilan shug'ullanishlari mumkin:

aviamodel;

avtomodel;

mototsikl;

biatlon;

o'q otish;

radio sporti;

yo'nalishni topish.

Maktabda o'tkaziladigan har bir musobaqa puxta ravishda tayyorlanishi, chiroyli bezatilishi, tashkiliy jihatdan yuksak darajada va qisqa vaqt ichida

o'tkazilishi lozim. Musobaqalarni o'tkazilishiga hakamlik darajalariga ega bo'lgan o'quvchilar keng jalb qilinishi kerak. Maktabdagi har bir musobaqa direktor tomonidan tasdiqlangan dastur harbiy o'tkazilishi va bu dastur shartlari musobaqa qatnashchilariga ikki oy avval yetkazilishi shart.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ommaviy-mudofaa ishlarini tashkillash va o'tkazishda harbiy ta'lim rahbarining vazifalari:

Maktabda harbiy to'garaklarni tuzish va ulardan 1, 2-sida mashg'ulotlar olib borish, shuningdek, boshqa o'qituvchilarga o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'z yordamini ko'rsatish, har xil ko'riklar, sportning harbiy-amaliy turlari harbiy musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashish;

2,5-sinf o'quvchilari bilan fuqarolar himoyasi harbiy shug'ullanayotgan o'qituvchilarga uslubiy yordam kursatish;

Harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlarini rejalashtirish va o'tkazishda sinf rahbarlariga uslubiy yordam ko'rsatish;

o'quvchi yoshlarni harbiy ta'lim va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sifatini oshirish maqsadida homiy bo'lgan harbiy qismlar va jamoat tashkilotlarining yordamidan samarali foydalanish;

harbiy mutaxassisliklarini tashviqot qilish va mudofaa ishlari bo'limiga o'smirlarni harbiy bilim yurtlariga tanlashda ko'mak berish;

maktab direktori rahbarligida harbiy talim tayyorgarligini tugallanishiga bag'ishlab, harbiy-sport bayramlarini tashkil etish va o'tkazish.

CHQBT rahbari o'z vazifalarini maktabning pedagogik jamoasi va eng avvalo, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sinf rahbarlari bilan birgalikda bajarishi kerak. U o'z ishlarini maktabdagi yoshlar tashkilotlariga tayanib olib borishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasining “2023-2027 yillarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash” Konsepsiyasi, T, 2023 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha Nizomi, T, 2023 y.
5. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov «Vatan tuyg'usi» T. 1996 y.
6. «Vatan himoyasi-muqaddas burch» T. Harbiy nashriyot, 2000 y.